



## 2019 yilning yanvar - fevral oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3002,4 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **95,9 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **406,7 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati **99,6 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **13,5 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **14,5 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3002,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 95,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda - 91,1 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida - 98,4 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 107,9 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 93,2 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar - fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



**Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar - fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1329,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 44,3 % ni tashkil etdi.

Tog' - kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan neft qazib olish hajmining - 6,2 % ga, gaz kondensati – 0,2 %, tabiiy gaz – 3,7 % ga, chaqiq tosh – 52,3 % ga, shag'al – 35,4 % ga, qum – 34,4 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalari  
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar - fevralda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvar - fevralda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
<b>Neft, ming tonna</b>			
93,7		87,9	93,8 
<b>Tabiiy gaz, mln.kub.metr</b>			
5618,0		5411,1	96,3 
<b>Gaz kondensati, ming tonna</b>			
232,8		232,4	99,8 
<b>Shag`al, ming tonna</b>			
31,4		20,3	64,6 

**Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2019 yilning yanvar - fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1240,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 41,3 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan polietilen – 3,1 % ga, ip-kalava – 9,5 % ga, plastmass quvurlar – 15,9 % ga oshganligini, paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan) va alkogol ichimliklar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil yanvar - fevralda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar - fevralda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
<b>Plastmass quvurlar, tonna</b>			
830,9		963,0	115,9 
<b>Polietilen, ming tonna</b>			
22,5		23,2	103,1 
<b>Alkogol ichimliklar, ming. litr</b>			
410		344	83,9 
<b>Ip-kalava, tonna</b>			
2793		3058	109,5 

<b>2018 yil yanvar - fevralda ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2018 yil yanvar - fevralda ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Paxta tolasi, tonna</b>			
34756		23185	66,7
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), tonna</b>			
5268		2771	52,6



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

2019 yil yanvar - fevral oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 410,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,7 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig`ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning – 11,1 % ga oshganligi, chiqindilarni yig`ish, ishlov berish, yo`qotish va utilizaciya qilish bo'yicha xizmatlarning esa – 13,4 % ga kamayganligi kuzatildi.

### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**


2019 yilning yanvar - fevral oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 406,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,6 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 13,5 % ni tashkil etdi.

### **2019 yilning yanvar - fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



2019 yil yanvar - fevral oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 58,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 41,5 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,2 % tashkil etdi.


**2019 yil yanvar - fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**



**Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 34,9 % ulushini), G'uzor (19,8 %), Nishon (11,6 %) tumanlari, Qarshi shahri (9,4 %), Koson (4,3 %) va Qarshi(4,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2019 yilning yanvar - fevral oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




Shu bilan birga eng kam ulush Kitob (1,3 %), Shaxrisabz (1,3 %), Chiroqchi (1,3 %), Mirishkor (1,4 %), Qamashi (1,6 %) va Yakkabog' (1,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmiga Muborak tumani 1046,6 mlrd. sumni, Guzor tumani 596,1 mlrd. sumni, Nishon tumani 347,3 mlrd. sumni va Qarshi shahri 281,3 mlrd. sumni sezilarli darajada tashkil etdi.

***2019 yilning yanvar - fevral oylarida shahar va tumanlarning  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmi***



**2019 yil yanvar - fevral oylarida shahar va tumanlar bo`yicha istemol mollarning o'sish sur`atlari, 2018 yil yanvar - fevral oylariga nisbatan %**




Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi Shaxrisabz tumanida (2018 yil yanvar - fevral oylariga nisbatan 106,0 % ga, Qarshi tumanida (105,3 % ga), Yakkabog` tumanida (103,8 % ga), Dexqonobod tumanida (103,7 %) va Kitob tumanida (103,2 % ga) oshdi.

Shuningdek, Iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste'mol tovarlari hajmida 31,8 %), Koson (9,6 %), Shaxrisabz (8,4 %) tumanlarida va Shaxrisabz shahrida (7,6 %) ishlab chiqarildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (12474,0 ming so'm), G'uzor tumanida (3018,2 ming so'm), Nishon tumanida (2366,0 ming so'm) va Qarshi shahrida (1044,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (943,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

***2019 yilning yanvar – fevral oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda***




### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 14,5 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Shaxrisabz tumanida (76,4), Chiroqchi tumanida (66,0 %), Qamashi (60,3 %), Yakkabog` tumanida (50,5 %), Qarshi (53,5%) va Shaxrisabz (48,2 %) shaharlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (0,8 %), G'uzor tumanida (1,7 %), Nishon tumanida (2,8 %) va Dehqonobod tumanida (9,0 %) kuzatildi.


#### **2019 yilning yanvar - fevral oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da**



## **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini.**

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 582 tasi Qarshi shahrida, 365 tasi Kitob tumanida, 261 tasi Shahrisabz shahrida, 250 tasi Yakkabog` tumanida, 219 tasi Qarshi tumanida, 209 tasi Chiroqchi tumanida, 156 tasi Qamashi tumanida, 141 tasi Shahrisabz tumanida, 149 tasi Koson tumanida, 123 tasi Guzor tumanida, 96 tasi Kasbi tumani, 56 tasi Muborak tumani, 88 tasi Nishon tumanida, 56 tasi Dehqonobod tumanida va 61 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

### **2019 yil 1 mart holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni**



Joriy yilning yanvar - fevral oylarida viloyatda 332 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ulardan 50 tadan ortiq Qarshi shahriga, 30 tadan ortiq Chiroqchi tumaniga, 20 tadan ortiq Yakkabog`, Shahrisabz, Nishon, Kitob, Qarshi, Kasbi tumanlariga, 10 tadan ortiq Guzor, Dexkonobod, Mirishkor tumanlariga va Shahrisabz shahriga to'g'ri keladi.